



PUL MUOMALASI

Negmurodov Shahzod Shuxrat o'g'li
Xodjaniyazova Shoxsanam Ergash qizi

Annotatsiya: *Pul muomalasi, iqtisodiy tizimning muhim bir qismi bo'lib, pulning aylanishi, uning qiymati va iqtisodiy faoliyatdagi roli bilan bog'liq jarayonlarni o'z ichiga oladi. Har bir mamlakatda pul muomalasi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, bu esa iqtisodiy barqarorlik va rivojlanishga ta'sir ko'rsatadi. Pul muomalasi, asosan, ikki asosiy komponentdan iborat: pulning o'zgarishi va uning qiymati. Pulning o'zgarishi, ya'ni pulning qanday qilib iqtisodiy faoliyatda ishlatilishi, savdo-sotiq, investitsiya va boshqa moliyaviy operatsiyalarni o'z ichiga oladi. Bu jarayonda pulning qiymati, ya'ni uning xarid qilish qobiliyati va inflyatsiya darajasi muhim ahamiyatga ega.*

Kalit so'zlar: *pul, inson, jamiyat, oldi-berdilar, iqtisodiy rivojlanish, iqtisodiy barqarorlik, savdo-sotiq, investitsiyalar.*

Insonlar bir jamoa bo'lib yashar ekan, bir-birlari bilan o'zaro ehtiyojlari va maqsadlari bir nuqtada doimo kesishadi. Bu ko'p holatda jismoniy, ruhiy, diniy va dunyoviy shakllarda ko'zga ko'rinadi. Aslidachi? Aslida ham shundaymi degan savol tug'iladi har birimizda! Aslida esa qarashlarim bo'yicha insonlarni manfaat bir nuqtada kesishtiradi. Bu esa asosan pul ko'rinishida bo'ladi. Misol tariqasida ikkita do'stlarning oldi-berdilari, sotuvchi va xaridorlar va hokazo. Birinchi holatda ikki insonni do'stlik aloqasi bog'lab tursada o'zaro oldi-berdilari ular o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlaydi. Ya'ni, bu jarayon davomiyligi bir tarafdin ikki tarafning bir-birlariga manfaat olib kelishi hisobiga qurilgan. Ikkinchi holatda esa sotuvchining o'z mahsulotini xaridorga sotishida bir manfaat yotsa, xaridorning bu mahsulotni ko'zlagan narxda xarid qilishida bir manfaat bor. Demak, ko'p hollarda insonlarni moddiy manfaatlar birlashtirib turadi. Bu gap bilan aytilmoqdaki pul do'stlikdan afzalligi, savdoda faqatgina pulni ko'zlash pul muomalasida yakuniy xulosani bermasligini anglatadi.

Musulmon kishining qarashlari qanday degan savol tug'ilishi tabiiy hol albatta. Kitoblarda va diniy materiallardan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki, pul muomalasi bu insonning shu yashab turgan dunyosida to'g'ri yo'lga qo'yilgan bo'lishi kerak. Chunki, inson nafs o'zgaruvchan, statsionar bo'lmaydi. Agarda u nazoratga olinmasa insonni bu dunyoning o'zidayoq zalolatga yetaklashi mumkin.





Ulamolar inson hayotini tartibga soluvchi beshta zarurat borligini aniqlashgan. Bular quyidagilarga qaratiladi:

- 1) dinni
- 2) jonni
- 3) aqlni
- 4) naslni
- 5) mol-dunyoni saqlash.

Bularga xizmat qiladigan har bir narsa “maslahat” yoki “foйда” deyiladi. Bunga teskari keladigan har bir narsa buzg‘unchilik yoki zarar deyiladi. Mana shu besh narsa inson uchun eng zarur bo‘lgan insoniy manfaatlarni yuzaga chiqaruvchi omillardan hisoblanadi. Bularning bari bajarilsa inson hayoti doimiy bardavomlikda kechadi.

Aynan mana shu yerda molni saqlash(pul muomalasi) inson hayotida asosiy zaruratligi ko‘rinib turibdi. Endi buni qanday tushunish kerak degan savolga javob topib ko‘ramiz!

Ba‘zi insonlar pulni ovqatga o‘xshatishadi. Sababi, puling bo‘lsa tushlikka nima yeyishlik borasida o‘ylab yotmaysan. Agarda teskarisi, puling bo‘lmaganda esa haqiqiy o‘ylash, tushkinlik shunda boshlanadi deya gaplarini quvvatlaydilar. Demak, och qolishni umuman o‘ylamaslik uchun kishi hoh ayol hoh erkak bo‘lsin o‘ziga doim pul manbayi topish uchun harakat qilishlari kerak bo‘ladi. Buni o‘z navbatida moliyaviy erkinlik sifatida ham baholash mumkin. Ammo, bu bilan pul muomalasi o‘z yechimini topmaydi. Yuqorida aytilganidek, hamma narsa o‘tkinchi pul ham obro‘ ham va o‘z navbatida yashab turgan olamimiz ham. Barchasini o‘z o‘rnida yashab o‘tishimiz uchun esa eng avval nafsni tarbiyalab olishimiz zarur deb hisoblayman. Chunki, nafs pul muomalasi qoidalariga salbiy ta‘sir yetkazishi mumkin. Ya‘ni, inson pulni topishdan oldin u bilan qanday muomala qilishni o‘rgangan bo‘lishi kerak. Nafsi iymonidan ustun kelmasligi, bu dunyo ishlariga berilib ketmasligi uchun eng asosiysi oxiratini yutqazib qo‘ymasligi uchun buni o‘rganishi zarur. Hayotda ham kuzatamiz, puli ko‘pu nafsiga qul insonlar vaqtlarini va pullarini keraksiz o‘tkinchi narsalarga sarflashadi. Xuddiki, vaqt bir yerda to‘xtab qolgandek. Aslidachi vaqt o‘tib bormoqda kecha qo‘limizda yo‘q narsalar bor, ertasiga yo‘q bo‘lmayaptimi!? Pul o‘zimizniki xoxlaganimdek ishlataman bilganimni qilaman deyishlari mumkin, lekin bu gaplari qancha ham davom etishi mumkin. Bu gaplarni puli ko‘p insonlar pul muomalasini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishgan degan tushuncha kelmasligi uchun keltirildi.

Ilmli insonlarni qarasak, hayoti to‘kis baxtli insonlar. Chunki, ular o‘z hayotlarini va kariyeralarini hayot qurmaslaridan oldin rejalashtirib bo‘lgan bo‘lishadi. Va shu





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'OYALAR



reja asosida davom etadilar. Aynan mana shu pul muomalasini to'g'ri yo'lga qo'yishning isbotidir. Biz buni hayotimizning ko'p kezlarida ishda, o'qishda, universitetlarda kuzatganmiz. Demak, pul muomalasida pulni kelajakka, oilaga, ilmga va bir qancha Yaratganni rozi qiladigan amallarga sarflash bilan barkamollikka erishadi.

Xulosa o'laroq so'zimni yakunlarkanman, ushbu maqolada keltirilgan ibora va mulohazalar hech qanday shaxsiy fikrlarga asoslanmagan. Bari kitoblarda yozib o'tilgan bilimlarga asoslanadi. Bu mavzuda yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni bizdagi nomukammallikkka yo'yasiz degan umiddaman. Ze'ro, mukammallik bizga emas, faqatgina O'zigagina xosdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Akmal Miravaz o'g'li MAQOSID(Maqсадlar) Toshkent-2022
2. ijtimoy tarmoqlardagi motivatsiyon kontentlar
3. Ba'zi kitoblarda keltirilgan xulosa va fikrlar